

AKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOYIY-EMOTSIONAL VA PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA NOAN'AVIY TA'LIMNING O'RNI

Xasanova Nargiza Omonqulovna

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani
16-sonli DMTT direktori

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanishida noan'anaviy ta'limning o'rni yoritilgan. Noan'anaviy ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda empatiya, emotsional intellekt, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. O'yin, loyiha va STEAM texnologiyalarining samarali ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-emotsional rivojlanish, psixologik rivojlanish, noan'anaviy ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, empatiya, emotsional intellekt.

Аннотация

В тезисе рассматривается роль нетрадиционного обучения в социально-эмоциональном и психологическом развитии детей дошкольного возраста. Подчеркивается эффективность игровых, проектных и STEAM-технологий в формировании эмоционального интеллекта, эмпатии, самостоятельного мышления и коммуникативных навыков. Обоснована значимость внедрения инновационных методов в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: социально-эмоциональное развитие, психологическое развитие, нетрадиционное обучение, инновационные педагогические технологии, эмоциональный интеллект, эмпатия.

Abstract

The thesis examines the role of non-traditional education in the social-emotional and psychological development of preschool children. It highlights the effectiveness of game-based, project-based, and STEAM approaches in developing emotional intelligence, empathy, independent thinking, and communication skills. The importance of implementing innovative teaching methods in preschool education is emphasized.

Keywords: social-emotional development, psychological development, non-traditional education, innovative pedagogical technologies, emotional intelligence, empathy.

Biz globallashtirish davrida, tobora rivojlanib borayotgan, raqamlashtirilayotgan bir davrda yashar ekanmiz, pedagog sifatida aholining katta qismini tashkil etadigan yoshlar va bolalarni tarbiyasiga katta e'tibor qaratishimiz juda muhim. Ushbu maqolada bolalarning ilk bolalik davrida ijtimoiy-hissiy va psixologik rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratiladigan noan'anaviy muhit haqida fikr yuritiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning jamiyatda qiynalmasdan o'z o'rnini topishiga, barcha sohalarda mukammal rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, nafaqat aqliy, balki ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanishiga, sog'lom jism va sog'lom fikrga ega shaxs bo'lib yetishib ulg'ayishiga qaratilgan.

So'nggi yillarda pedagogik amaliyotda an'anaviy o'qitish bilan birga noan'anaviy ta'lim texnologiyalaridan ham keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar bolalarda faollikni oshirish, mustaqil

fikrlashni va emotsional barqarorligini shakllantirish, jamoada erkin muloqot qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Maktabgacha yosh inson hayotida uning shaxs bo'lib yetishishiga asos soladigan davrdir. Bu davr bolaga tushunish, his qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqot qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga asos solinadigan davrdir. Noan'anaviy ta'lim esa bolaning ushbu rivojlanish jarayonini qo'llab-quvvatlovchi, uning qiziqishlariga mos holda, samarali metodlar yordamida amalga oshiradigan ta'limdir.

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanishida noan'anaviy ta'limning o'rni va ahamiyati, shuningdek amaliyotda qo'llash imkoniyatlari haqida so'z boradi

Maktabgacha yoshda bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning kelgusidagi mukkamal shaxs bo'lib shakllanishiga asos bo'ladi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishining asosiy komponentlaridan biri erkin muloqotga kirishish qobiliyatidir. Bolalar kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatga kirishar ekan, j atrof-muhitni anglagan holda, o'z fikrini bayon qila olishni, jamoada o'zini munosib tutishni o'rganadilar. Shu bilan birga bolalar o'z galar fikrini tinlay bilish va hurmat qilish, hamkorlikda ishlash, birgalikda muammolarga yechim topish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar.

Bolaning emotsional rivojlanishining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- Empatiya va his-tuyg'ularni anglash
- Bola hissiyotlarini tanishi va boshqara olishi ko'nikmasi
- O'z galar fikrini hurmat qilish
- Tengdoshlari yutugiga quvonish, xursandchiligiga sherik bo'lish
- His-tuygularini erkin ko'rsatish va boshqalar

Emotsional rivojlanishning ahamiyati shundan iboratki, bunda bola boshqalarning hislarini tushunish va hurmat bilan munosabatda bo'lishi bolada emotsional intellektni shakllantiradi. Emotsional barqarorlik bolaning o'ziga bo'lgan ishonchiga, motivatsiyasi va muloqot qobiliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Bolada emotsional kompetentlikning to'g'ri rivojlanmasligi, ya'ni nosog'lom muhitda o'sishi, bolalarda qo'rquv, ishonchsizlik, agressiya, tortinchoqlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Bolada psixologik rivojlanishnig asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- Ijodiy tafakkur va fantaziyaning o'sishi
- Muammodan qo'rqmaslik, balki uni yechish, mustaqil fikrlash
- Qiziqishlar va shaxsiy motivatsiyaning shakllanishi
- O'zini anglash va o'z-o'zini nazorat qilish va boshqalar

Biz, kattalar, bolalarning ilk bolalik davrida ijtimoiy-hissiy va psixologik rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratib, ularda yuqorida keltirib o'tilgan kompetentlarni rivojlantirar ekanmiz, bolalarni kelajakda mustaqil fikrlovchi va erkin etuvchi, muammolarga tik boquvchi va hal qiluvchi, stressga chidamli, har bir ishga ijodkorlik bilan yondashuvchi mukammal shaxs etishishida ulkan hissa qo'shgan bo'lamiz.

Bu o'rinda noan'anaviy ta'limning mohiyati va asosiy turlariga to'xtalish joiz.

Noan'anaviy ta'lim — bu bolaning faolligi va qiziqishlariga asoslangan pedagogik jarayondir.

Noan'anaviy ta'lim quyidagi afzalliklarga ega:

- Bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi
- Emotsional rang-baranglikni oshiradi
- Ijodkorlik va mustaqillikni rivojlantiradi

- Muammoli vaziyatlarda o'zini tuta olishni o'rgatadi
- O'zaro hamkorlikni kuchaytiradi
- Jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantiradi

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida noan'anaviy ta'limning quyidagi asosiy turlaridan foydalaniladi:

- O'yin texnologiyalar: rolli, harakatli va mantiqiy o'yinlar orqali bolalar ijtimoiy-emotsional jihatdan rivojlanadi.

- Loyiha metodi: bolani kuzatishga, izlanishga va hamkorlikka undaydi.

- STEAM texnologiyalari: fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaning uyg'unligi tafakkurni rivojlantiradi.

- Kichik guruhlarda ishlash: markazlarda ishlash orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi. Bu o'qitishning interfaol metodi bo'lib, u qisqa vaqt ichida barcha ishtirokchilarni jalb qilgan holda ko'p vazifani bajarishga va shu yo'l bilan samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanishida noan'anaviy ta'lim muhim o'rin tutadi. Ushbu metodlar bolaning tabiiy qiziqishlariga mos keladi, faol ishtirokni ta'minlaydi, ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi, emotsional barqarorlik va ijodkorlikni rivojlantiradi. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida noan'anaviy metodlardan muntazam foydalanish, pedagoglarni zamonaviy texnologiyalarga o'rgatish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi.** "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. (takomillashtirilgan 2-nashr)– Toshkent, 2022.
2. Karimova D.X., Ismailova N.Sh. Maktabgacha ta'limda innovatsion va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va ta'lim, 2021. – 156 b.
3. Abduqodirova R.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-emotsional rivojlanish masalalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 120 b.
4. **Vigotskiy L.S.** Psixik rivojlanish nazariyasi va bolaning ijtimoiy muhitdagi shakllanishi. – M.: Pedagogika, 2019.